

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

NamMQL
Ro'yxatga olindi:
O'quv-uslubiy bosqiqama
№ 180
2024 y.
«5» 07 2024 y.

«tasdiqlayman»
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
dots. Q. Inoyatov
2024 y.



HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI
Fanning
ISHCHI/PASTURI
(sirtqi ta'lim yo'nalish uchun)

Bilim sohasi: 700 000 – Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari

Ta'lim sohasi: 730000 – Arxitektura va qurilish

Ta'lim yo'nalishlari: 60730800 – Yo'l muhandisligi (sohalar va faoliyat turlari bo'yicha)

Semestr	Ma-ruza	Amaliy mashg'ulot	Mashg'ulot tarkibi			Nazorat turi	Jami o'quv soati
			Laboratoriya ishlari	Seminar mashg'ulot	Mustaqil ta'lim		
9(YM)	10	8	4	-	128	+	150
					Sirtqi bo'lim		

Namangan-2024y.

Ishchi fan dasturi ishchi o'quv reja va TDTU da ishlab chiqilib, OO'MTV tomonidan 2019 yil 17 avgustda ro'yxatga olib, 2019 yil 4 oktabrda tasdiqlangan fan dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:
Sh. V. Raxmanov – NamMQI, Mehnat muhofazasi va ekologiya kafedrasida dotsenti

Taqiruzchi:
Z. Turayev – NamMQI, Kimyoviy texnologiya kafedrasida professori, t.f.d.

Fanning ishchi o'quv dasturi Mehnat muhofazasi va ekologiya kafedrasining 2024 yil «___» dagi «___» -son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: **Sh. Raxmanov**

Fanning ishchi o'quv dasturi Energetika va mehnat muhofazasi fakultetining kengashida muhokamadan o'tgan va foydalanishga tavsiya etilgan.
(2024 yil «___» dagi «___» -sonli bayonmoma).

Fakultet kengashi raisi: **R. Soliyev**

KELISHILDI:

Mutaxassislik kafedrasini: _____ Kafedra mudiri (t.f.d.)
Inzo _____

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i: **T. Jo'rayev**

Namangan muhandislik-qurilish instituti o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya qilingan. «___» 2024 y. dagi ___ sonli majlis bayoni.
(___ -son bilan ro'yxatga olingan).

Kirish

Oliy ta'lim muassasalarida muhandislik yo'nalishlaridagi ta'lim sohasi mutaxassislarini tayyorlash uchun «Hayot faoliyati xavfsizligi» fan sifatida kiritilgan. Mazkur fan bo'yicha o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlari va malaka talablaridan bakalavr tayyorlash mazmuni va saviyasini majburiy minimummiga bo'lgan talablariga muvofiq tuzilgan. Ma'lumki, hozirgi fan taraqqiyoti, texnika va umumiy holda sanoat tarmoqlarining rivojini ishlab chiqarishni rivojlantirishida muhim hisoblanadi. Bularning barchasi moddiy boyliklar bo'lib, amalda korxonalaridagi xavfli va zararli omillar, ularning oldi olinishi, ulardan ishechilar salomatligini buzilishi oldini olish orqali iqtisodiy yo'qotishlar oldi olinadi. Shulardan kelib chiqib, muhandislik yo'nalishidagi bakalavriatura talabalariga sohada xavfsizlikni ta'minlash, bu to'g'risidagi tasavvurga ega bo'lishlari uchun Hayot faoliyati xavfsizligi fanini o'qitish muhim hisoblanadi.

Fanning barcha o'quv mashg'ulotlari turlarida sohani egallash, mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi, korxonalarda mehnat muhofazasini tashkil etish, ishlab chiqarish sanitarivasi va mehnat gigiena, mehnat to'g'risidagi qonunchilik, texnika xavfsizligini o'rgatish, mehnatni to'g'ri tashkil etish, xavfli va zararli omillar, ularning inson organizmiga ta'siri kabi masalalar muhokama qilinadi. Bu mavzular yoshlarga jarohatlanish va kasb kasalliklari sabablari, ularning xavfli va zararli oqibatlari, inson hayoti va salomatligini saqlab qolishga qaratilgan chora – tadbirlar, xavfsiz va zararli sharoitda ishlab chiqarish usullarini tushuntirishida muhim hisoblanadi. Buning ma'nosiga etadigan bakalavr kadrlar, albatta, kelgusida ishlab chiqarish korxonalarida mehnat muhofazasi muhandisi yoki shu mutaxassislik bo'yicha kadr bo'lib ishlashi mumkin hisoblanadi. Chunki hozirgi vaziyatda xavfsiz hayotni ta'minlash masalalari eng dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarini nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, mehnat huquqini ta'minlashning uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish asosida hayot faoliyati va xavfsizligi, mehnat muhofazasi texnika xavfsizligini amalda qo'llay oladigan muhandislarini tayyorlashga xizmat qiladi.

1. Fanning maqsadi va vazifalari

«Hayot faoliyati xavfsizligi» fanini o'qitishdan maqsad talabalarini ishlab chiqarish korxonalarining mehnat muhofazasiga doir ishlarni amalga oshira oladigan muhandis bo'lishlarida boshlang'ich bilimlarga ega qilishdan iborat.

Fanning vazifasi ishlab chiqarish jarayonlarida yuzaga keladigan zararli va xavfli omillar, ularga qarshi kurashish, inson faoliyati davomida unga salbiy ta'sir etuvchi omillar, ularga qarshi kurash choralarini, O'zbekiston Respublikasida sanoat korxonalarining ishchi va xodimlari kasb kasalliklari va jarohatlanish olishlari oldini olish, jarohat olgan insonlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish va boshqa muhim vazifalarni bajara oladigan kasbiy malakaga o'rgatishdan iboratdir.

2. Fanni o'qitish jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

Fanni o'quv ma'ruza, amaliy mashg'ulot turlarida auditoriyada nazariy va amaliy mashg'ulotlar ko'rinishida tashkil etish mo'ljallangan. Bunda asosan guruh talabalariga oldindan rejalashtirilgan mashg'ulot mavzulari taqdim etilishi ko'zda tutilgan.

Fanni o'qitish talabalarning o'quv rejasiga kiritilgan matematik, tabiiy hamda umumkasbiy va ixtisoslik fanlariga tayangan holda olib boriladi.

5. Fanning ilim-fan va ishlab chiqarishdagi o'rni

Hozirgi vaqtda respublikamizda sanoat va korxonalarda ishchilar salomatligini saqlash, ularni mehnat qonunchiligi asosida boshqarish asosiy masalalardan biri deb hisoblanadi. SHu bois ushbu fanni talabalarga o'qitish, o'rgatishni tashkil qilish kabi masalalar ishlab chiqarish uchun juda muhimdir. Shuning uchun ushbu fan muhandislik fani hisoblanib, ishlab chiqarish texnologik tizimlarining ajralmas bo'g'indiri. Bu ishlab chiqarishning taraqqiy etishida, har bir sanoat ishlab chiqarishida muhim o'rin egallaydi. Buning asosiy sababi fan taraqqiyoti amaliy natijalarga asoslanishida ishlab chiqarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarari va xavfli omillar sababi ishchilarning salomatliklari buzilishiga olib kelishi natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy va jittimoy zararlardan iborat. Shuning uchun ham hozirgi har bir muhandisga, har bir ishchiga mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi to'g'risidagi bilim berilishi muhim sanaladi. Aynan Hayot faoliyati va xavfsizligi fani o'sha masalani ko'radi.

6. Fanni o'qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalar "Hayot faoliyati xavfsizligi" fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbir qilish muhim ahamiyatga ega. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar va ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi. SHaraitdan kelib chiqqan hollarda Onlayn dars shakllaridan foydalanish yo'lga qo'yiladi.

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va mul'timedia vositalaridan foydalanish; tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish.

"Hayot faoliyati xavfsizligi" kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ta ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmoqchi lozim: jarayonning mantiqiyli, uning barcha bo'g'inlarining aniq ketma-ketlik asosida o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. SHaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatini faollashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Hayot faoliyati xavfsizligi fanini o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot - kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi tavsiya etiladi;

- **Hayot faoliyati xavfsizligi** fanining nazariy bo'limiga tegishli ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron - didaktik texnologiyalardan foydalanish;

- **Hayot faoliyati xavfsizligi fani** mavzularida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda aqliy hujum, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalardan foydalanish;

- **Mehnat muhofazasi texnika xavfsizligi** o'rganish, ularning asosiy parametrlarini va elementlarini aniqlash mavzularida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda kichik guruhlar musobaqalari, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalarni qo'llash nazarda tutiladi.

3. Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, malaka va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi.

- mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligini;
- ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish va ularni o'rganish;
- ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish;
- zararlangan shikastlanish o'choqlaridagi fuqarolarni qutqarish va tiklov ishlarini o'tkazish;
- turi xavflarga qarshi xavfsizlik choralarini ko'rish;
- ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnat gigienasi, qulay mehnat sharoitlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi.
- xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlash sohasida qabul qilingan qonun hujjatlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarining asosiy talablarini;
- xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarining yuzaga kelishining oldini olish usullarini;
- ishlab chiqarishda mikroqilimning gigienik me'yorlarini tashkil etishni bilishi va ulardan foydalana olishi;

- ishlab chiqarish tarmoqlarida xavfsiz ish sharoitini tashkil etishni;
- korxonada faoliyati davomida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar turlari, ularning kelib chiqish sabablari, oqibatlarini tahlil qilish uslublari;
- korxonada faoliyati davomida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarda insonlar va moddiy boyliklarni saqlash va qutqarish vositalarini ishlatish ko'nikmalariga ega bo'lib, yuqoridagilarni ishechi va xodimlarga tushuntirish ishlarini o'rganishi kerak.

Qo'yilgan vazifalar o'qitish jarayonida talabalarning ma'ruza va seminarlarda faol ishtiroki hamda o'qituvchi kuzatuvda mustaqil ta'lim olishi bilan amalga oshiriladi.

4. Fanning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi

"Hayot faoliyati xavfsizligi" fani umumkasbiy fanlar blokidan o'rin olgan bo'lib, 10-semestrd o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish uchun o'quv rejasidagi mavjud matematika va tabiiy (oliy matematika, fizika, kimyo, chizmachilik, informatika va axborot texnologiyalari; ekologiya), ijtimoiy fanlardan - falsafa, tarix, iqtisod kabi bir qator fanlardan etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qarartish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qaralama qarshiligi va uni hal etish usullarini dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ulami ijodiy tarzda qo'llashning mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash. Belgilangan tatibda, zurrur bo'lganda onlayn dars mashg'ulotlarini amalga oshirish.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kiritish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va foyihalash usullari, seminar mashg'ulotlari aniq hisoblash ishlari va amaldagi ko'rganlilik prinsipi asosida olib boriladi.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog(ikki kishi muloqoti), polilog(ko'pchilik muloqoti), muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, jamoa va guruhi.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari, rangli plakatlari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaqa asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, bitis-so'rov, oraliq, joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

"Hayot faoliyati va xavfsizligi" fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, "Excel" elektron jadvallar dasturlaridan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo'yicha talabalar bilimlari baholash test asosida va kompyuter yordamida bajarilishi mumkin. "Internet" tarmog'idagi rasmiy iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so'z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

Dasturning informatson-uslubiy ta'minoti asosida mazkur fanji o'qitish jarayonida talimning zamonaviy ilg'or interfaol usullaridan, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining prezentatsiya (taqdimot), multimedia va elektron-didaktik texnologiyalaridan foydalaniladi.

7. Nazariy mashg'ulotlar mazmunini

1-ma'ruza. "Hayot faoliyati xavfsizligi" faniga kiritish. Hayot faoliyati xavfsizligining huquqiy asoslari.

Hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash. Hayot faoliyati xavfsizligi haqida tushuncha. Hayot faoliyati xavfsizligining asosiy tushunchalari va terminlari. Hayot

faoliyati xavfsizligi tarkibiy qismlari va ularning tekshirish obektlari. Hayot faoliyati xavfsizligi nazariy asoslari.

Hayot faoliyati xavfsizligining huquqiy asoslari, mazmunini. Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan asosiy qonunlar, standartlar, nizomlar, qoidalar va me'yoriy hujjatlar tizimi.

2-ma'ruza. Faoliyat xavfsizligini tahlil qilish. Faoliyat xavfsizligini ta'minlashning ergonomika va psixologik asoslari.

Faoliyat xavfsizligini tahlil qilish. Hayot faoliyati xavfsizligining asosiy tushunchalari, ularning mazmunini. Xavflar, ularning tasnifi. Faoliyat xavfsizligini ta'minlash tamoyillari, usullari. "Inson - muhit" tizimida inson omili.

Faoliyat xavfsizligini ta'minlashning ergonomika asoslari asosiy prinsip va usullari. Faoliyat xavfsizligi psixologiyasi. Inson faoliyatini tashkil qilishning psixologik jihatlari. Ish joylarini estetik jihatdan jihozlash.

3-ma'ruza. Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini boshqarish tizimini tashkil qilish. Xavfsiz faoliyatni tashkil qilishda xodimlar bilimlari tekshirish va o'qitish.

Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini boshqarish tizimi, xavfsizlikni ta'minlashga oid tadbirlarini rejalashtirish. Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini boshqarish tizimini mablag' bilan ta'minlash.

Ishlovchilarni faoliyat xavfsizligi talablariga amal qilishga o'qitish va qayta tayyorlash tizimi. Xodimlarni o'qitish va qayta tayyorlash ni tashkil qilish. Bilimlarni tekshirish va baholash tizimi samaradorligi.

4-ma'ruza. Ishlab chiqarishda sodir bo'ladigan baxsiz hodisalar va kasb kasalliklari.

Ishlab chiqarishda mehnat qobiliyatini yo'qotilishi. Faoliyat jarayonida sodir bo'ladigan avariyaalar. Ishlab chiqarishda faoliyat jarayoni vaqtida yuzaga keladigan jarohatlanishlar va kasb kasalliklari. N-1 shakldagi dalolatnomani to'ldirish tartibi.

5-ma'ruza. Ishlab chiqarishning sanitariyasi va gigienasi me'yori, mazmunini.

Texnosferada havo muhitining ko'rsatkichlari, ularning mehnat faoliyatiga ta'siri, ishlab chiqarish mikroqitmining gigienik me'yori, ularning inson organizmiga ta'siri. Ishlab chiqarishda mo'tadil ob-havo sharoitini yaratish.

6-ma'ruza. Ishlab chiqarish changlari va zaharli moddalarning inson organizmiga salbiy ta'siri, ularga qarshi chora-tadbirlar.

Ishlab chiqarish changlari moddalarning inson organizmiga salbiy ta'siri. Changlarga qarshi chora-tadbirlar. Ishlab chiqarish jarayonlarida zararli omillar va ularidan himoyalantirish tadbirlari. Ishlab chiqarishda zararli moddalar va ularidan himoyalantirish usullari.

7-ma'ruza. Ishlab chiqarish korxonalarini shamollatish va yoritish tizimi.

Ishlab chiqarish korxonalarini shamollatish tizimi ularning turlari. Umumiy va mahalliy shamollatishning mohiyati. Ishlab chiqarishda yoritish va uni me'yori. Tabiiy va sun'iy yoritish. Yoritishga qo'yiladigan sanitar-gigienik talablar. Yoritish vositalari va turlari.

8-ma'ruza. Ishlab chiqarishda shovqin va titrash. Ishlab chiqarishda zararli nurlanishlar, ularning hususiyatlari va inson organizmiga ta'siri.

Shovqin va titrash inson organizmiga zararli ta'siri. Yuzaga kelish sabablari va manbalari. Shovqin va titrashni tasniflash, muhofaza chora-tadbirlarini belgilash.

Ultra va infratovushlarning inson organizmiga zarari ta'siri. Yuzaga kelish manbalari va sabablari. Himoyalash vositalari.

Ishlab chiqarishda zarari nurlanishlar, ularning hususiyatlari va inson organizmiga ta'siri. Yuzaga kelish manbalari va sabablari. Ularni tasniflash va meyorlash. Nurlanish manbalari va ularda ishlovchilarning xavfsizligini ta'minlash.

9-ma'ruza. Ishlab chiqarishda elektr xavfsizlik asoslari.

Ishlab chiqarishda elektr xavfsizlik asoslari. Elektr tokidan muhofazalanish usullari. Erga ulab muhofazalanish tadbirlari. Inson tanasiga elektr tokiga ko'rsatayotgan qarshiligi.

10-ma'ruza. Favqulodda vaziyatlar, ularning turlari va xususiyatlari. Fuqaro muhofazalanish maqsadi va vazifalari. Zilzila va undan ogohlantirish, muhofazalanish tadbirlari.

Favqulodda vaziyatlar, ularning turlari va xususiyatlari. Tabiiy ofatlar va ularning sodir bo'lishi. Texnolog va ekologik favqulodda vaziyatlar va undan muhofazalanish usullari. Suv toshqinlari, er ko'chkilari, qor ko'chkilari.

Fuqaro muhofazasining kuch va vositalari, uning iqtisodiyot tarmoqlarida tashkil etish tartiblari. Fuqaro muhofazasi rejalarini tuzish. Fuqaro muhofazasi shab-o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'tkazish.

Zilzila va uning sodir bo'lishi. Zilzila turlari va aniqlash usullari. Zilzila va undan ogohlantirish, muhofazalanish tadbirlari. Zilzilaga aholini tayyorlash. Bino va inshootlarning zilzila bardoshligini oshirish.

11-ma'ruza. Yong'in xavfsizligini ta'minlash choralari.

Yong'in ofati, uning kelib chiqish sabablari, omillari, turlari, yomish fazalari va ularning xususiyatlari. Iqtisodiyot tarmoqlari binolari, inshootlari va qurilish materiallarining yong'iniga qarshi bardoshlilik darajalari. Sanoat korxonalarining yong'iniga va portlashga xavfi bo'yicha toifalari.

12-ma'ruza. Birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish asoslari.

Respublikada halokatlar tibbiy xizmatining tashkil etilishi va uning asosiy vazifalari. Jabrlanganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatishning tartibi va qoidalari. Yurak-o'pka reanimatsiyasi (qayta jonlantirish)ni o'tkazish qoidasi. Tomirlardan qon ketishi, turlari, vaqtincha to'xtatish usullari.

"Hayot faoliyati va xavfsizligi" fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlarining kalendar tematik rejasini

№	Mavzularning nomi	Ajratilgan soat
1	Hayot faoliyati xavfsizligining huquqiy asoslari. Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini boshqarish tizimini tashkil qilish.	2
2	Xavfsiz faoliyatni tashkil qilishda xodimlar bilimni tekshirish va o'qitish. Ishlab chiqarishning sanitariyasi va gigienasi. Meyorlari, mazmuni.	2
3	Ishlab chiqarishda shovqin va titrash. Ishlab chiqarishda zarari nurlanishlar, ularning hususiyatlari va inson organizmiga ta'siri	2
4	Ishlab chiqarishda elektr xavfsizligi asoslari Favqulodda vaziyatlar, ularning turlari va xususiyatlari.	2
5	Yong'in xavfsizligini ta'minlash choralari Birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish asoslari	2
Jami:		10

9. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Ushbu o'quv fani bo'yicha talabalarni amaliy mashg'ulotlarni ma'ruzalar matni va tavsiya etilgan adabiyotlar hamda davriy jurnallar, internet materiallari bilan ishlashni, standart va malaka talablariga mos ravishda bajarishni o'z ichiga oladi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:
1. Fanining asosiy tushunchalari mohiyati; xavf turlarini, ularni guruhlash va identifikatsiyalash.

2. Hayot faoliyati xavfsizligining komfort sharoitlari, ishchi o'rni ergonomikasini o'rganish.

3. Ishlab chiqarishning zarari va zaharli omillarini inson organizmiga ta'siri hisoblash.

4. Ishlab chiqarishdagi shovqin va vibratsiyani hisoblash.

5. Ishlab chiqarishdagi tabiiy va sun'iy yorug'likni hisoblash usullari.

6. Mexanik jarohatlanishdan muhofazalanish va muhofazalovchi vositalarni aniqlash.

7. Elektr tokining inson organizmiga fiziologik ta'siri.

8. Yong'in o'chirishning asosiy vositalarini hisoblash usullari.

9. Kasbiy kasalliklarni va ishlab chiqarishdagi jarohatlarni tekshirish, hisobga olish va aniqlash usullari.

10. O'zbekistondagi mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi sohasidagi boshqaruv tizimining tuzilishi va funktsiyalari.

11. Tashkilotlardagi mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini boshqarishdagi xavfli ob'ektlari.

12. Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini boshqarishni xududiy, ishlab chiqarishdagi darajasi.

"Hayot faoliyati va xavfsizligi" fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarining kalendar tematik rejasini

№	Mavzularning nomi	Ajratilgan soat
1.	Fanning asosiy tushunchalari mohiyati; xavf turlarini, ularni guruhlash va identifikatsiyalash	2
2.	Hayot faoliyati xavfsizligining komfort sharoitlari, ishchi o'rni ergonomikasini o'rganish. Ishlab chiqarishning zarari va zaharli omillarini inson organizmiga ta'siri hisoblash	2
3.	Ishlab chiqarishdagi shovqin va vibratsiyani hisoblash. Ishlab chiqarishdagi tabiiy va sun'iy yorug'likni hisoblash usullari. Mexanik jarohatlanishdan muhofazalanish va muhofazalovchi vositalarni aniqlash	
4.	Elektr tokining inson organizmiga fiziologik ta'siri. Yong'in o'chirishning asosiy vositalarini hisoblash usullari.	
Jami:		8

10. Laboratoriya mashg'ulotlari

Ushbu o'quv fani bo'yicha talabalar laboratoriya ishlari o'quv rejadagi auditoriya soatlarga mos ravishda standart va malaka talablariga mos ravishda mustaqil bajarishni o'z ichiga oladi.

Laboratoriya mashg'ulotlarining taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Ishlab chiqarish korxonalarida va inshootlarda tabiiy yorug'likni aniqlash.
2. Sanoat korxonalar va muassasalarda mikroqilim sharoitlarini aniqlash.
3. Zararli va zaharli moddalarning konsentratsiyasini aniqlash.
4. Sanoat korxonalaridagi shovqinni aniqlash
5. Ishlab chiqarish joylaridagi tebramishni aniqlash
6. Elektr jihozlarini erga ulashni hisoblash
7. Birlamchi o't o'chirish vositalari ish unumdorligini aniqlash.
8. Avtomatik yong'indan darak beruvchilarning ish unumdorligini aniqlash.

“Hayot faoliyati va xavfsizligi” fani bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlarining kalendar tematik rejasini

№	Mavzularning nomi	Ajratilgan soat
1	Ishlab chiqarish korxonalarida va inshootlarda tabiiy yorug'likni aniqlash. Sanoat korxonalar va muassasalarda mikroqilim sharoitlarini aniqlash. Zararli va zaharli moddalarning konsentratsiyasini aniqlash. Sanoat korxonalaridagi shovqinni aniqlash.	2
2	Ishlab chiqarish joylaridagi tebramishni aniqlash. Elektr jihozlarini erga ulashni hisoblash. Birlamchi o't o'chirish vositalari ish unumdorligini aniqlash. Avtomatik yong'indan darak beruvchilarning ish unumdorligini aniqlash.	2
Jami:		4

Tajriba mashg'ulotlari talabalarning faolligi asosida amalga oshiriladi. Bunda talabalarning guruhlariga bo'lib, ularni tinglash va tahlil qilish usullari qo'llanilishi mumkin.

11. Mustaqil ta'limning mavzulari

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

«Hayot faoliyati xavfsizligi» fani bo'yicha talabning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydilar, misollar keltirilishi va tushunmagan jumalar bo'yicha savollar bilan murojaat etadilar. Auditoriyadan tashqari talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlardan foydalanib konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan topshiriqlarni bajaradi. Bundan tashqari mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qiydi, mustaqil izlanib, internet ma'lumotlaridan foydalanib, referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo'yicha testlar ehadadi. Eng asosiysi talabalar mustaqil ta'limda fanga doir keng tushunchalarga erishadi. Bu maqsadda talabalar fanga doir glossariy hamda testlar tuzadi. Mustaqil ta'lim natijalari joriy etilgan baholash tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish, yo'qlarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola yoki referatlar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi. “Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasi” fanidan mustaqil ish majmuasini fanning barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi mavzular ko'rinishida shakllantirilgan:

1. HFx muammolarini o'rganishga katta hissa qo'shgan jahon va vatanimiz olimlari. Ularning asosiy ilmiy-amaliy ishlari.
2. Xavflarni kvantifikatsiyalashning sonli, balli va boshqa uslublarini tahlil qilish.
3. Xavfsizlikni ta'minlash tamoyillari va uslublarini tahlil qilish.
4. Faoliyatning turli bosqichlarida xavfsizlik shartlarini tahlil qilish.
5. Faoliyat xavfsizligini ta'minlashning ergonomik ko'rsatkichlarini tahlil qilish.
6. Ish o'rini tashkilotlashning talablari.
7. Inson antropometrik ko'rsatkichlarining faoliyat xavfsizligiga ta'siri.
8. Faoliyat xavfsizligini ta'minlashda psixologik omillarning ahamiyati.
9. O'zbekiston Respublikasida hayot faoliyat xavfsizligini ta'minlash sohasida qabul qilingan qonun va me'yoriy hujjatlar tizimi.
10. Hayot faoliyati xavfsizligi fani bo'yicha glossariy tuzish.
11. Insonning fiziologik va psixologik tavsiflarining xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati.
12. Odam anatomiyasining (antropometrik parametrlarining) xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati.
13. Hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashga oid xalqaro tajriba va izlanishlar taxlili.
14. Hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashga oid chet davlatlarda qabul qilingan qonunlar va me'yoriy hujjatlar taxlili.
15. Shovqin va itirashdan himoyalash texnik vositalarining guruhlaniishi va tuzilishi.
16. Mashina va mexanizmlar uchun texnika xavfsizligi talablari keltiriladigan me'yoriy hujjatlar tizimi.
17. Davlat yong'in xavfsizligi xizmati.
18. Respublika bo'yicha yong'inlar sodir bo'lishi va ularda ko'riladigan zararlarni ta'g'risida statistik ma'lumotlar taxlili.
19. Yong'indan himoyalashning zamonaviy texnik vositalari.
20. Xalqaro terrorizm va terroristik tashkilotlar.
21. O'zbekistonda bo'lishi mumkin bo'lgan tabiiy xavflar.
22. Markaziy Osiyoda bo'lishi mumkin bo'lgan tabiiy xavflar.
23. “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnologiyalar xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish ta'g'risida”gi qonun.
24. Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi(FVDT)ning strukturaviy tuzilishi.
25. “Fuqarolar muhofazasi ta'g'risida”gi qonuni.
26. “Terrorizmga qarshi kurash ta'g'risida”gi qonuni.
27. “Xavfli ishlab chiqarish obektlarining sanoat xavfsizligi ta'g'risida”gi qonuni
28. Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qabul qilingan davlat standartlari tizimi.
29. “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi ta'g'risida”gi qonuni.
30. “Sanitariya nazorati ta'g'risida”gi qonuni.
31. “Fuqarolar sog'lig'ini saqlash ta'g'risida”gi qonuni.
33. Tashkilotlardagi mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini boshqarishdagi xavfli obektlari.
34. Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini boshqarishni xududiy, ishlab chiqarishdagi darajasi.

35. Korxonalarda ishchilarni mehnatini muhofaza qilishni tashkillashtirish. 36. Ish joylarini sharoitiga ko'ra attestatsiya qilish, korxonalaridagi mehnatni muhofazalash ishlari bo'yicha sertifikatlaysh.

37. Davlatimizda va chet ellardagi hayot faoliyati xavfsizligining madaniyatini holati.
38. Hayot faoliyati xavfsizligining madaniyatini umumiy tavsifi, uning tarixiy, falsafiy, ijtimoiy va diniy asoslari.

39. Hayot faoliyati xavfsizligining madaniyatini tushunchasi.

40. Hayot faoliyati xavfsizligining madaniyatini tashkil etish obektlari.

41. Hayot faoliyati xavfsizligi sohasidagi xalqaro tajribalar.

42. Xodimlarning xavfsiz faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari.

43. Ish beruvchining majburiy javobgarligi.

44. Mehnat xavfsizligi bo'yicha xodimning bilimlarini tekshirish.

45. Insonning faoliyat jarayoniga adaptatsiyasi.

Eslatma: *Mavzu bo'yicha konspekt qilish, test savollari tuzish va prezentatsiyalar tayyorlash topshiriqlari dars so'ngida beriladi*

12. «Hayot faoliyati xavfsizligi» fanidan talabalar bilimini baholash mezonlari

Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil «9» avgustidagi № 19-2018-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi buyrug'i bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomni asosida ishlab chiqildi.

Talabalar bilimini baholash

1. Talabalar bilimini baholash 5 bahollik tizimda amalga oshiriladi. Bunda 5, 4 va 3 baholar kursdan-kursga ko'chirish uchun asos bo'lsa, 2 baho nazorat turlariga kirish uchun etarli bo'lmaydi va belgilangan muddatlarda talaba fandan qayta topshira olmasa akademik qarzdor hisoblanadi.

2. Oraliq nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabani bilimni baholash o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi tomonidan o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Oraliq nazorat ballari yakuniy nazorat o'tkaziladigan muddatdan kamida bir hafta muddatda umumlashtirilishi va talabalarga fan o'qituvchisi tomonidan etkazilishi shart.

3. Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabani bilimni baholash o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi tomonidan yoki markazlashgan holda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda amalga oshirilishi mumkin. Agar belgilangan fan bo'yicha mashg'ulot o'tgan professor-o'qituvchi(lar)dan boshqa fan bo'yicha mutaxassis bo'lmagan hollarda, tegishli kafedra mudiri yakuniy nazorat muddatidan kamida bir oy muddat oldin fakultet dekaniga mutaxassis bilan ta'minlash yuzasidan yozma murojaat qiladi. Ushbu holatlarda fakultet dekanlari fan bo'yicha mutaxassis topish uchun bevosita mas'ul hisoblanadi.

Tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi yakuniy nazorat turini o'tkazishda ishtirok etishi taqiqlanadi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazishda kelishuv asosida boshqa oliy ta'lim muassasalarining tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchilari jalb qilinishi mumkin.

4. Talaba tegishli fan bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkaziladigan muddatga qadar oraliq nazorat turini topshirgan bo'lishlari shart. Oraliq nazoratlarni olishda mashg'ulotlarda qatnashayotgan talabalarni to'liq qamrab olish professor-o'qituvchining zimmasiga yuklanadi.

5. Oraliq nazorat turini topshirmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha

«2» (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi.

Yakuniy nazorat turiga kirmagan yoki kiritilmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha «2» (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

6. Talaba uzri sabablarga ko'ra oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turiga kirmagan taqdirda ushbu talabaga tegishli nazorat turini qayta to'shishga fakultet dekanining farmoyishi asosida ruxsat beriladi.

7. Talabaga oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini qayta topshirish uchun berilgan muddat davomida talaba tomonidan qayta to'shishlari soni 2 marta ko'p bo'lmagunicha kerak.

8. Talaba oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini birinchi mara qayta topshirishdan o'ta olmagan taqdirda, fakultet dekan tomonidan komissiya tuziladi. Komissiya tarkibi tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchi va soha mutaxassislari orasidan shakllantiriladi.

Ikkinchi mara oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini o'tkazish va talabani baholash mazkur komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

9. Berilgan muddat davomida mavjud bo'lgan qarzdorlikni topshira olmagan talaba bo'yicha fakultet dekan bildiri bilan institut rektorini xabardor qiladi va ushbu talaba rektor buyrug'i asosida kursdan qoldiriladi.

10. Kursda qoldirilgan talaba fanni (fanlarni) o'zlashtirmagan semestr boshidan to'lov-kontrakt asosida mazkur o'quv yilining tegishli semestri uchun tasdiqlangan o'quv rejaiga muvofiq o'qishni davom ettiradi.

11. Baholash natijasidan norozi bo'lgan talabalar fakultet dekan tomonidan tashkil etiladigan Apellyatsiya komissiyasiga apellyatsiya berish huquqiga ega.

12. Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga talabani baholashda ishtirok etmagan tegishli fan professor-o'qituvchilari orasidan komissiya raisi va kamida to'rt nafar a'zo kiritiladi.

13. Talaba baholash natijasidan norozi bo'lgan taqdirda, baholash natijasi e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat davomida apellyatsiya berishi mumkin. Talaba tomonidan berilgan apellyatsiya, apellyatsiya komissiyasi tomonidan 2 kun ichida ko'rib chiqilishi lozim.

14. Talabani apellyatsiyasini ko'rib chiqishda talaba ishtirok etish huquqiga ega.
15. Apellyatsiya komissiyasi talabani apellyatsiyasini ko'rib chiqib, uning natijasi bo'yicha tegishli qaror qabul qiladi. Qarorda talabani tegishli fanni o'zlashtirgani yoki o'zlashtira olmagan ko'rsatiladi. Apellyatsiya komissiyasi tegishli qarorni fakultet dekan va talabaga etkazilishini ta'minlaydi.

Yakuniy nazorat 7-semestrda 6 soat ma'ruza, 4 soat amaliy va 4 soat laboratoriya mashg'ulotlari o'tkazilgandan so'ng yozma yoki test shaklida o'tkaziladi.

Talabalar quyidagi nazariy mavzularni mustaqil bajarishlari kerak bo'ladi:

Mavzularning nomi	
№	
1	Faoliyat xavfsizligini tahlil qilish.
2	Faoliyat xavfsizligini ta'minlashning ergonomika va psixologik asoslari
3	Ishlab chiqarishda sodir bo'ladigan baxtsiz xodisalar va kasb kasalliklari
4	Ishlab chiqarish changlari va zaharli moddalarning inson organizmiga salbiy ta'siri, ularga qarshi chora-tadbirlar
5	Ishlab chiqarish korxonalarini shamollatish va yoritish tizimi
6	Ishlab chiqarishda shovqin va titrash

7	Ishtab chiqarishda zararli nurlanishlar, ularning hususiyatlari va inson organizmiga ta siri
8	Fuqaro muhofazasining maqsadi va vazifalari.
9	Zilzila va undan ogohlantirish, muhofazalanish tadbirlari

Tabalalar quyidagi amaliy mashg'ulotlar mavzularni mustaqil bajarishlari kerak bo'ladi:

Mavzularning nomi	
№	
1	Kasbiy kasalliklarni va ishtab chiqarishdagi jarohatlarni tekshirish, hisobga olish va aniqlash usullari.
2	O'zbekistondagi mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi sohasidagi boshqaruv tizimining tuzilishi va funksiyalari.
3	Tashkilotlardagi mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini boshqarishdagi xavfli obektlari
4	Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini boshqarishni xududiy, ishlab chiqarishdagi darajasi.

Oraliq nazorat uchun belgilangan mustaqil ish va nazariy mashg'ulot mavzulari topshiriqlari yozma shaklda bajariladi.

Oraliq baholash talabalarga berilgan mustaqil ishlarni va mustaqil bajarish uchun berilgan nazariy mavzularni bajarilishi bo'yicha baholanadi, baholangandan so'ng barcha baholar olingan natija talabanning o'zlashtirish ko'rsatkichini belgilaydi va yakuniy nazorat topshirishiga asos bo'ladi.

Talaba yakuniy nazoratgacha berilgan topshiriqlarni bajarmasa yoki qoniqsiz baholansa yakuniy nazoratga ruhsat berilmaydi.

Yakuniy nazorat yozma yoki test shaklida o'tkazish tavsiya etiladi.

Oraliq baholash uchun mustaqil o'zlashtirilgan nazariy mashg'ulotlar mavzulari va yakuniy savollar banki ilovaga muvofiq o'quv mashg'ulotlari boshlanganda talabalar ixtiyoriga etkaziladi.

13. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda ahborot manbaalari Asosiy adabiyotlar

1. A. Mark, P. Friend James Fundamentals of Occupational Safety and Health. Beman Press. Germaniya, 2007
2. Yuldashev O.R. Mehnat muhofazasi maxsus kursi./ Darslik. –T.: "Tafakkur qanoti", 2015. – 336 b.
3. E.I. Ibragimov, S. Gazinazarova, O.R. Yuldashev. Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Darslik. –T.: TIMI, 2014. –536 b.
4. O.R. Yuldashev, Sh.G. Djaborova, O.T. Xasanova. Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik –T.: "Toshkent-Iqtisodiyot", 2014. – 268 b.
5. Yormatov G'Yo. va boshqalar. Hayot faoliyati-xavfsizligi. –T.: "Aloqachi", 2009. – 348 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2014. – 46 b.

9. "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi (yangi taxriri) O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2016 yil 22 sentyabr.

Internet saytlari

12. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
13. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
14. www.mintrud.uz – Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi sayti.
15. www.bilim.uz – O'QMTV sayti